

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз, -Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.
3. Г.Б.Болоний, В.Ю.Лыскова. Кластерный подход и его использование в научно-педагогических исследованиях. Вестник ТГУ, т.16, вып.1, 2011.
4. Портер М. Конкуренция. Санкт-Петербург; Москва; Киев: Издат. дом «Вильямс», 2000.
5. Ғ.Муҳамедов, У.Ходжамқулов. педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф ва тасниф. Илмий рисола. -Т.: Университет, 2019, -Б. 9.
6. Абдиримова, И. К. (2020). Лойиҳалаш фаолиятининг босқичлари лойиҳага ёндашув моҳияти ва мақсадлар уйғунлиги. Science and Education, 1(Special Issue 2). 18-26.22
7. Abdirimova, I. Methods and tools for the implementation of project activity in education.
8. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.
9. И. К. Абдиримова Гармония образования в формировании любви к стране у молодежи Academic Research in educational sciences volume 2 (Issue 2) 2021 ISSN: 2181-1385, 1416-1421
10. И. К. Абдиримова Лойиҳа фаолиятида кластер усулини қўллашнинг аҳамияти. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2021, [1/6/3] Б. 58-60

DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Baltabaev T.

QR XTKQT va MOHM "Amaliy fanlar

va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasining katta o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotasiya: Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar kasbiy tarbiyasini shakllantirishning maqsad va vazifalari, shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishga oid mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, kasbiy tarbiya, yosh avlodni shaxsiy kasbiy sifatлари, darsdan tashqari mashg'ulot.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi ta'lim tizimini jahon talablari darajasida isloh qilishdan iborat bo'lib, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biri o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Ertangi kunimizning asoschilari bo'lgan bolalar va yoshlarga imtiyozli sharoitlar berilishi qonun hujjatlarida alohida tarzda belgilab qo'yilgan. Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri –o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etish va faoliyatga tayyorlashdir. O'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish mehnat bilan bog'liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir.

Bu nafaqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'limtarbiyasiga ma'sul ijtimoiy insitutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, yoshlar ittifoqi va boshqalarning asosiy vazifasidir.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasbiy tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smarning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish.

Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi kasbiy tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'unchilikka, tuhmat, chaqimchilik) ga toqatsizlik;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat mulqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga sodiqlik, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish;
- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqarorsaq lab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya.

Darsdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyang an holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarining o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. O'quvchilarda kasbiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevis h, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. O'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim. Kasbiy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va oshkoralikni himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir.

Darsdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi asosiy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- kasbiy tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar ishlab chiqish;
- kasbiy tarbiyani zamon talablari asosida tashkil etadigan pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;

Xulosa qilib aytganda darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga yo'naltirish ishlari mahalliy sharoitlarga moslab aniq rejalar, tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'lishi kerak. Ushbu konsepsiya asosiy tarbiyaviy ish yo'nalishlarining mazmuni, maqsadlari, vazifalarini belgilashda va shubhasiz, xalq ta'limi tizimidagi barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari, jamoatchilikning kuchg'ayratini yoshlar tarbiyasi muammolarini hal qilishga yaxlit yondashishni o'z mazmuniga jamlab, o'sib kelayotgan yosh avlodni shakllantirishning aniq vazifalarini bajarishda dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Tagayev X., Tolipov U.K. Pedagogicheskiye osnovy sovershenstvovaniya tvorcheskoy lichnosti. Metodicheskoye posobiye. –Moskva,:UCOPAO,1993.
2. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Shirinov M., Xolmatov P., Matnazarova K. Umimiy pedagogika. Darslik. Navro'z. 2016.
3. Xolmatov P.Q. O'quvchilarni kasb-hunarnga o'naltirish. Morografiya. Fan. 2006.

INTERCULTURAL AND LINGUODIDACTIC ASPECTS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENT

Gilyazetdinov E.Z.

Senior teacher, Methodology of teaching English language department №2

UzSWLU, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: eldar_85q@mail.ru

tel.: +998915764257

At the present stage of development of the domestic and foreign theory and methodology of teaching foreign languages, we have no doubts in the fact that we should teach foreign languages in the context of culture, which has found its theoretical justification and practical implementation in a number of modern culturally oriented or culturally specific concepts: socio-cultural (V.V. Safonova, V.P. Sysoev G.D. Tomakhin), linguocultural (V.V. Vorobyev, V.P. Furmanova, M.A. Suvorova), intercultural (S.G. Ter-Minasova, G.T. Makhkamova, G.V. Elizarova).

The methodological basis of research within the framework of these approaches is the dialogical concept of culture by M.M.Bakhtin, which reveals the deep unity of language and culture, and the concept of linguistic personality (Y.N. Karaulov, I.A. Khaleeva, G.I. Bogin, V.P. Furmanova).

The concepts mentioned above form the basis of numerous dissertation studies aimed at forming, along with the verbal-semantic, cognitive and pragmatic levels of linguistic personality.